



**Namangan viloyati
xalq ta'limi boshqarmasi
Yangiqo'rg'on tumani
44-sonli umumiy o'rta ta'lim
maktabi psixologi
E'tiborxon Botirovaning
“O'quvchilarni kasb-hunarga
qiziqtirish va yo'naltirish bo'yicha”
trening mashg'ulotlari.**



Mavzu: “O’quvchilarni kasb-hunarga qiziqtirish va yo’naltirish bo’yicha ” trening mashg’ulotlari .



O`quvchi yoshlarni kasb tanlash, kasbga yo`naltirish, kasbni egallash va mutaxassis sifatida ishlash va tajribali mutaxassis bo`lib kamol topishida uzliksiz, hamda bir-birini to`liq izchilligini taqozo etadigan jarayondir.

Maqsadga yaqinlashgan sayin mashshaqqat ortib boradi. Lekin har bir kishi yulduzlarga o'xshab sokinlik bilan, shoshmasdan, biroq belgilangan maqsad sari uzuliksiz intilgan holda, o'z yo'llarini bosib o'tish kerak

Gyote



Maqsad:

- * O'quvchilarni kelajakdagi kasblari haqidagi tushunchalarini shakllantirish va o'ziga baho berishga o'rgatish.
- * O'quvchilarni kasbga bo'lgan qiziqishlarini orttirish, kasblar lug'ati bilan tanishtirish.
- * O'quvchilarda kasb hunar haqidagi bilimlarini rivojlantirish.



Vazifalari:

- * Har qanday vaziyatlarda o'zini erkin tuta olish va fikrlash ko'nikmalarini shakllantirish;
- * Eshitish va tinglash malakasini rivojlantirish;
- * Kasblar haqidagi tushunchalarni to'g'ri va aniq izohlashga o'rgatish



Kutilayotgan natija:

- * Kasblarni xilma xilligini ong ostida shakllantirish, kasb hunar haqidagi konikmalarini rivojlantirish.
- * O`quvchilarda kelajakdagi kasbini to`g`ri tanlay olishi uchun yo`l ko`rsatish.
- * Kasb egallashning moddiy va ma`naviy tomonlarini shakllantirish.



Ishtirokchilar: 7-11- sinf o'quvchilari



Reja:

1	Kirish qismi: <ul style="list-style-type: none">- Salomlashish- Trening ishlash qoidalarini aniqlash.- Maqsad va vazifalarni aniqlash..	5 daqiqa
2	Asosiy qism: (Amaliy mashg'ulotlar) <ul style="list-style-type: none">“Mening kelajagim rasmi”“Kasblar olami”“Maqolni davom ettir”	40 daqiqa

Ko'rsatmalar:

- * Rasm chizish uchun 4-A format qog'oz va rangli qalamlar.
- * Lug'at yozish uchun 4-A format qog'oz, ruchka kerak bo'ladi.
- * Koptok.

Treningning borishi.

1- trening mashg'ulot

“Mening kelajagim rasmi”

Maqsad: O'quvchilarni kelajakdagi kasblari haqidagi tushunchalarini shakllantirish o'ziga baho berishni o'rgatish

Ko'rsatmalar : rasm chizish uchun 4-A format qog'oz va rangli qalamlar

O'quvchilarga o'zlarining kelajaklarini qanday tasavvur qilishlari haqida rasm chizib berishlari tavsiya etiladi.

O'quvchilar rasm chizib bo'lganlaridan so'ng, birgalikda bunday yorug' kelajakda qanday erishganliklari haqida fikrlari tinglanib, muhokama qilinadi. Trener yakuniy so'zda o'quvchilarda kelajakda farovon turmush uchun tinimsiz halol mehnat, ilm, izlanish yaxshigina kasb egasi bolishlari kerakligini tushuntiradi.

2-trening mashg'ulot

“Kasblar olami”

Maqsad: O`quvchilarni kasbga bo'lgan qiziqishlarini orttirish, kasblar lug'ati bilan tanishtirish.

Ko'rsatmalar: lug'at yozish uchun 4-A format qog'oz, ruchka kerak bo'ladi.

Trener guruhlariga oq qog'ozga yozilgan kasblar to'g'risidagi lug'atlarni ko'rsatadi va ular haqida tushuncha beradi, ya'ni har bir o'quvchi lug'atlarni izoxini oq qog'ozga yozishi kerak.

Bunda quyidagi kasblarni yozish mumkin.

1 muxandis

2 qandolatchi

3 sotsiolog

4 mehanik

5 bezakchi (dizayner)

6 statis

7 broker

8 sug'urta agenti

9 kinolog

10 tadbirkor

1 dasturchi

2 oshpaz

3 faylasuf

4 murabbiy(trener)

5 geolog

6 tarjimon-gid

7 topograf

8 kartograf

9 stenografist

10 hisobchi

Har bir ishtirokchi berilgan kasblarni izoxi bilan oq qog'ozga yozib bo'lganlaridan so'ng, mashg'ulot yakunida ularni javoblari va fikrlari tinglanadi. Yakuniy so'zda trener izohini toppish qiyin bo'lgan kasblarni o'zi to'ldiradi va qanday vazifani bajarishini to'la yetkazib beradi.

3-trening mashg'ulot

“Maqolni davom ettir”

Maqsad: O'quvchilarda kasb hunar haqidagi bilimlarni rivojlantirish

Ko`rsatma: koptok

Ishtirokchilar doira bo`lib joylashgach, trener o'yinni boshlab beradi. Maqol aytib bir o'quvchiga koptokni uzatadi, keyin koptokni olgan o'quvchi ham maqol aytadi va o`yin shu tariqa davom etadi. Maqolni davom ettira olmagan o'quvchi davrani tark etadi.

Maqollar

- * Kasbi borning baxti bor
- * Hunar bo'lsa qo'lingda non topilar
yo'lingda
- * Mehnatli non shakar mehnatsiz non zaxar
- * Yigit kishiga qirq hunar oz
- * Hunarli kishi xor bo'lmas, do'st dushmanga
zor bo'lmas.

Mashg'ulot yakunida g'olib bo'lgan o'quvchi qarsak bilan rag'batlantriladi va ishtirokchilarni trening haqida fikrlari tinglanadi.

E'TIBORINGIZ UCHUN TASHAKKUR!

